

**SHUKUR XOLMIRZAYEV – O‘ZBEK ADABIYOTINING YIRIK
NAMOYANDASI***Mengnarova Sug‘diyona Komil qizi**Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Filologiya
va tillarni o‘qitish Euro-Inyaz yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Аннотация: В данной статье рассматриваются жизнь и творческая деятельность Shukur Xolmirzayev — одного из выдающихся представителей узбекской литературы, а также его вклад в развитие национальной литературы. В статье анализируются художественные особенности рассказов и повестей писателя, в которых отражаются духовный мир человека, жизненные проблемы, сельская жизнь и национальные ценности. Особое внимание уделяется своеобразию художественного стиля писателя, его мастерству создания образов и принципам жизненной правдивости. Также раскрывается, как в творчестве автора отражены человеческие качества, духовные ценности и важные вопросы общественной жизни. В статье анализируется место творчества Шукура Холмирзаева в узбекской прозе, а также воспитательное и духовное значение его произведений для современного читателя.

Annotation: This article examines the life and creative activity of Shukur Xolmirzayev, one of the prominent representatives of Uzbek literature, as well as his contribution to the development of national literature. The article analyzes the artistic features of the writer's stories and novellas, which reflect the human inner world, life problems, rural life, and national values. Special attention is paid to the uniqueness of the writer's artistic style, his skill in creating characters, and the principles of realism in his works. The article also reveals how human qualities, spiritual values, and important social issues are reflected in the author's works. Furthermore, it discusses the place of Shukur Xolmirzayev's творчество in Uzbek prose and the educational and spiritual significance of his works for modern readers.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Shukur Xolmirzayevning hayoti, ijodiy faoliyati hamda uning milliy adabiyotimiz rivojiga qo‘shgan hissasi yoritiladi. Maqolada adibning hikoya va qissalarida inson ruhiyati, hayotiy muammolar, qishloq turmushi va milliy qadriyatlarning badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Shukur Xolmirzayev asarlarining o‘ziga xos badiiy uslubi, obraz yaratish mahorati hamda hayotiylik tamoyillari alohida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yozuvchining ijodida insoniy fazilatlar, ma‘naviy qadriyatlar va jamiyat hayotiga oid muhim masalalar qanday aks etgani ochib beriladi. Maqola orqali adib ijodining o‘zbek nasridagi o‘rni, asarlarining tarbiyaviy va ma‘naviy ahamiyati hamda bugungi kitobxonlar uchun dolzarbligi tahlil etiladi.

Kalit soʻzlar: Shukur Xolmirzayev, oʻzbek adabiyoti, hikoya, qissa, inson ruhiyati, qishloq hayoti, badiiy mahorat, milliy qadriyatlar.

Serqirra ijodkor Shukur Xolmirzayev oʻzining roman, hikoya, drama singari janrlardagi oʻzining badiiy asarlari bilan oʻzbek adabiyotida oʻchmas iz qoldirgan. Uning asarlari oʻzbek xalqi maʼnaviyatining yuksalishida oʻziga xos ahamiyatga ega. Shukur Xolmirzayev naqadar serqirra ijodkor, u yozgan asarlar bugungi kun olimlari tomonidan hanuzgacha oʻrganib kelinmoqda. Adibning hikoyalari haqida taniqli oʻzbek adabiyoti olimlaridan U.Normatov, S.Mamajonov, Q.Yoʻldoshev, H.Boltaboyev, O.Otaxonov, R.Qoʻchqorovlarning maqolalari eʼlon qilingan. Shuningdek H. Karimovning “Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti” risolasi, akademik B.Nazarovning “Shukur Xolmirzayev” nomli ijodiy portreti yaratilgan. Bu tadqiqot va maqolalarda Shukur Xolmirzayev ijodining ayrim qirralari yoritilgan boʻlsa, uning hikoyachilikdagi mahorati, badiiy soʻz sanʼati, tasvir uslubi haqida G.N.Tavaldiyeva (2001), Sh.Doniyorova (2001) kabi adabiyotshunoslar ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borib va yozuvchining hikoyachilikdagi oʻziga xos tasvir uslubi, voqelikni badiiy idrok etish tamoyillari haqida ilmiy xulosa berganlar.(1-7). Shukur Xolmirzayev (1940-2005) — oʻzbek adabiyotining yirik namoyandasi, Oʻzbekiston xalq yozuvchisi (1991). Boysun tumanida tugʻilgan, jurnalistika sohasida tahsil olgan. U oʻzining “Oq otl”, “Toʻlqinlar”, “Oʻn sakkizga kirmagan kim bor?” qissalari, “Olis yulduzlar ostida” hikoyalar toʻplami hamda inson ruhiyati va milliy mentalitetni teran tasvirlagan romanlari bilan mashhur. Ziyosiz qalblar uchun! - Bosh sahifa Ziyosiz qalblar uchun! - Bosh sahifa:

Hayoti va Ijodiy Faoliyati:

Tugʻilishi: 1940-yil 24-martda Surxondaryo viloyati Boysun tumanida tugʻilgan.

Taʼlim: Toshkent davlat universiteti (hozirgi Oʻzbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetini 1963-yilda tamomlagan.

Ijodning boshlanishi: Dastlabki hikoya va ocherklari 1958-yildan nashr etila boshlagan.

Ijodiy uslub: Qahramonlar ruhiyatini tahlil qilish, hayotiy samimiylik, Boysun tabiati va odamlari hayotini oʻziga xos tarzda tasvirlash ijodining asosiy xususiyatidir.

Asosiy Asarlari:

Qissalar: "Oq otl" (1962), "Toʻlqinlar" (1963), "Oʻn sakkizga kirmagan kim bor?" (1965).

Hikoyalar toʻplamlari: "Olis yulduzlar ostida" (1971), "Hayot abadiy" (1974), "Ogʻir tosh koʻchsa..." (1980), "Yoʻllar, yoʻldoshlar".

Romanlar: Yozuvchi roman janrida ham bir qator asarlar yaratgan.

Shu jihatdan yozuvchi ijodida tabiat va inson tasvirining badiiy tadqiq etilishi uning ijodining o'ziga xos qirralari haqida ham ilmiy xulosalar berishga imkon beradi. Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachilik san'atining ustози Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko'targan yozuvchilardan biridir. Uning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bag'ishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shukur Xolmirzayev o'ndan ortiq hikoyalarida bola ruhiyatini yoritishga harakat qildi. Bu obraz ko'plab hikoyalarda aks etgan bo'lsa-da, bir-birini takrorlamaydigan xarakterlar galeriyasi bo'lib gavdalandi. Shukur Xolmirzayev o'ziga xos shaxsiy badiiy uslub sohibi sifatida taqlidchilikdan, biryozlamalikdan, bayonchilikdan qochadi, so'zga xasis bo'lsa-da, fikrini o'quvchiga to'la va yorqin yetkazishga erishadi. Biroq ba'zan uning asarlari tugallanmagandek taassurot uyg'otadi. Shukur Xolmirzayev yozuvchilar orasida birinchilardan bo'lib o'zbek xalqi tarixining „bosmachilik harakati“ deb atab kelingan davrini o'rgana boshladi. Yozuvchining „Qil ko'prik“ romani va „Qora kamar“ (1987) pyesasida shu mavzu o'z ifodasini topdi. Ularda adashgan kishilar fojiasi obrazlarda yorqin gavdalantirilgan. X. pyesasi asosida Abror Hidoyatov nomidagi Yoshlar teatrida sahnalashtirilgan „Qora kamar“ spektakli yosh avlodda tarixiy o'tmishga yangicha yondashish maylining paydo bo'lishida muhim rol o'ynadi. Sh. Xolmirzayevning o'zbek xotin-qizlarining sho'ro davridagi fojiali taqdiriga bag'ishlangan „Ziyofat“ pyesasi ham Yoshlar teatrida sahnalashtirilgan (1990). Sh. Xolmirzayev so'nggi yillarda Sh. Burxonov, B. Zokirov, R. Choriyev, Shuhrat, O. Yoqubov, O'. Umarbekov, A. Oripov, M. Qo'shjonov singari taniqli adabiyot va san'at namoyandalari haqida esselar va adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. Sh. Xolmirzayev – roman janrida bir qator asarlar yozgani va bu asarlar shu davr o'zbek romannavisligi tarixida muayyan o'ringa ega bo'lishiga qaramay, avvalo hikoyanavis. U o'z hikoyalarida A. Qodiriy, A. Qahhor kabi o'zbek yozuvchilarining eng yaxshi an'alarini davom ettirish bilan birga o'zbek hikoyanavisligini rus va Yevropa yozuvchilarining badiiy tajribalari bilan ham boyitdi. Sh. Xolmirzayevning eng yaxshi hikoyalari qahramon obrazining yangi va yorqinligi, kompozitsiyasining o'ziga xosligi, qahramonlar tilining rangbarangligi bilan ajralib turadi. Sh. Xolmirzayev so'nggi yillarda Sh. Burxonov, B. Zokirov, R. Choriyev, Shuhrat, O. Yoqubov, O'. Umarbekov, A. Oripov, M. Qo'shjonov singari taniqli adabiyot va san'at namoyandalari haqida esselar va adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. Sh. Xolmirzayev – roman janrida bir qator asarlar yozgani va bu asarlar shu davr o'zbek romannavisligi tarixida muayyan o'ringa ega bo'lishiga qaramay, avvalo hikoyanavis. Shukur Xolmirzayev mehnat faoliyatini turli nashriyot va jurnallarda olib borgan: „Yosh gvardiya“ nashriyotida muharrir, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida adabiy xodim, „Guliston“ va „Sharq yulduzi“ jurnallarida adabiy xodim va bo'lim mudiri bo'lib ishlagan. Yozuvchining dastlabki hikoyalari 1958-yildan boshlab matbuotda chop etila boshlagan. Uning „Oq otli“, „To'lqinlar“, „O'n sakkizga kirmagan kim

bor?” kabi qissalari yoshlar hayotini tasvirlagani bilan mashhur bo‘lgan. Shukur Xolmirzayev o‘zbek nasrida hikoyachilikni rivojlantirgan yirik adiblardan biri hisoblanadi. U ko‘pincha oddiy insonlar hayoti, qishloq muhitidagi voqealar va inson ruhiyati haqida yozgan. Yozuvchi ijodi uchun 1991-yilda “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” unvoni berilgan. Shukur Xolmirzayev 2005-yilda vafot etgan, ammo uning asarlari hozir ham o‘zbek adabiyotining muhim qismi hisoblanadi.

References:

1. ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI in-academy.uz/index.php/si
2. Journal of Universal science research
3. https://www.wikiwand.com/uz/Shukur_Xolmirzayev
4. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940>
5. <https://inlibrary.uz/index.php/zdpp/article/view/62358>